

“O'zkimyosanoat” Aj va tizim korxonalarini Komplayens xizmatlari tomonidan 2022-yil III chorak mobaynida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan BRIFING o'tkazildi

// 26.10.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/video/komplayens-xizmati-3-chorak-mobaynida-amalga-oshirilgan-ishlar-yuzasidan-brifing>

Hisobot davrida joriy yilning avgust oyida Toshkent viloyati Zangiota tumanida yashovchi U.D.ning arizasiga asosan “O'zkimyosanoat” AJ Komplayens xizmati tomonidan O'zbekiston Respublikasi DXX, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Toshkent shahar boshqarmasi bilan hamkorlikda “O'zkimyosanoat” AJ tizimida ishlab chiqarilayotgan mineral o'g'itlar eksporti bilan bog'liq korrupsion holatlarni bartaraf etish, mazkur sohada noqonuniy faoliyat olib borayotgan uyushgan jinoiy guruhning firibgarlik, ta'magirlik hamda tovlamachilik jinoyatlariga chek qo'yish maqsadida tezkor faol tadbir o'tkazildi.

Mazkur tadbir davomida MChJlarning birining vakili D.U.dan Toshkent viloyati Qibray tumanida yashovchi M.S., Toshkent viloyati Chirchiq shahrida yashovchi, M.A., Toshkent shahri Shayxontohur tumanida yashovchi MChJ rahbari A.J hamda Navoiy viloyati Karmana tumanida yashovchi, “Navoiyazot” AJ bo'lim boshlig'i X.D. va Navoiy shahrida yashovchi “Navoiyazot” AJ mas'ul xodimi X.J.lar aldov va firibgarlik yo'li bilan mazkur MChJga “Navoiyazot” Ajda ishlab chiqarilgan **5000 tonna** “B” markali selitra mahsulotlarini go'yoki “O'zkimyoimpeks” MChJdagi yuqori lavozimlarda ishlovchi tanishlari orqali eksport qilish uchun shartnomani imzolatib berish uchun, jami **450 ming AQSH dollari** miqdoridagi pul mablag'lari berishini talab qilib, so'ralgan pul mablag'laridan **200 ming AQSH dollarini** olayotgan vaqtida ushbu guruh vakillari jinoyat ustida qo'lga olindi va ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining tegishli moddalari bandlari bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanildi. Hozirgi vaqtda Toshkent shahri Uchtepa tumani jinoyat ishlari bo'yicha sudi tomonidan ushbu jinoyat ishi ko'rib chiqilmoqda.

Tizim korxonalarida xaridlar jarayonining ochiq va shaffofligini ta'minlash hamda ularni “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonun talablariga muvofiq o'tkazilishini ta'minlanishi natijasida, jami **3,1 mlrd.so'mlik** pul mablag'larining asossiz sarflanishini oldi olinib, iqtisod qilindi. Shuning bilan bir qatorda, xaridlar jarayonida ishtirokchilarning o'zaro til biriktirishlari, raqobat muhitini cheklashga urinish hamda ball qo'yishda baholash mezonlariga noxolis yondashuvlarni bartaraf etilishi natijasida, jami **29,1 mlrd.so'mlik** shartnomalarning tuzilishi rad etilib, aniqlangan manfaatlar to'qnashuviga chek qo'yildi.

O'tgan yili shu davrda kimyo sanoati korxonalarida **32** ta profilaktik tadbirlar o'tkazilgan bo'lsa, joriy yilning hisobot davrida **204** ta seminar va profilaktik tadbirlar o'tkazilgan.

“O'zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati